

---

## Konstitutsiyada ayollarning mehnat huquqlari yanada mustahkamlandi

*Konstitutsiyada "Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi", degan norma kiritildi*

Shu o'rinda, ayollarning mehnat huquqlari masalasi mamlakatimizda ko'p yillar davomida bahsli bo'lib kelgan. Masalan, tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish normalari kamaytirilgan holatda ular avvalgi ishlaridagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq ishga o'tkazilishi belgilangani uchun ba'zi tashkilot rahbarlari bunday ayollarni shunchaki ishga olishdan bosh tortib boshlagan.

2023-11-28 14:07:15